



Ilxom XOLMUMINOV,

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti dotsenti, PhD

O'zbek tili va adabiyoti universiteti professori B.Holiqov taqrizi asosida

BADIIY MATN TARJIMASIDA KOGNITIV-PARADIGMATIK YONDASHUV: HIKOYA JANRI MISOLIDA

Аннотация

Ushbu maqolada badiiy matn xususan, hikoyalar tarjimasida kognitiv-paradigmatik yondashuvning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda konseptual tizimlar, metaforik modellar va lingvokulturologik vositalarning tarjimaga ta'siri ko'rib chiqiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonida nafaqat lingvistik birliklarni, balki muallifning konseptual dunyoqarashini ham adekvat yetkazish muhimdir. Shuningdek, badiiy matn tarjima qilishda ekvivalentlik ham muhim ahamiyat kasb etgan holda asl matnning mazmuniga mos kelishida tarjimondan stilistik vositalardan o'rinni foydalanish talab etiladi. Badiiy matn tarjima qilish jarayoni bir nechta bosqichlarni talab etib, bu jarayonlarning barchasi ushbu maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: kognitiv paradigma, tarjima, hikoya, konsept, metafora, lingvokulturologiya

КОГНИТИВНО-ПАРАДИГМАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПЕРЕВОДУ ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ТЕКСТА: НА ПРИМЕРЕ ЖАНРА «РАССКАЗ»

Аннотация

В данной статье анализируется роль и значение когнитивно-парадигматического подхода в переводе литературных текстов, в частности рассказов. Исследование также рассматривает влияние концептуальных систем, метафорических моделей и лингвокультурных инструментов на перевод. Результаты показывают, что в процессе перевода важно адекватно передавать не только языковые единицы, но и концептуальное мировоззрение автора. Кроме того, при переводе литературного текста важна также эквивалентность, требующая от переводчика использования соответствующих стилистических приемов для соответствия содержанию оригинала. Процесс перевода литературного текста включает в себя несколько этапов, все из которых отражены в данной статье.

Ключевые слова: когнитивная парадигма, перевод, рассказ, концепция, метафора, лингвокультура.

COGNITIVE-PARADIGMATIC APPROACH TO THE TRANSLATION OF FICTION: USING THE EXAMPLE OF THE "STORY" GENRE

Annotation

This article analyzes the role and significance of the cognitive-paradigmatic approach in the translation of literary texts, particularly short stories. The study also examines the influence of conceptual systems, metaphorical models, and linguistic-cultural tools on translation. The results demonstrate that in the translation process, it is important to adequately convey not only linguistic units but also the author's conceptual worldview. Furthermore, when translating a literary text, equivalence is also important, requiring the translator to use appropriate stylistic devices to match the content of the original. The process of translating a literary text involves several stages, all of which are discussed in this article.

Keywords: cognitive paradigm, translation, short story, concept, metaphor, linguistic culture.

Kirish. Hikoya janridagi matnlarni tarjima qilish jarayonida ularga kognitiv-paradigmatik nuqtai nazardan yondashilganda, badiiy tarjima jarayonida yozuvchi narrativining tarjimon ongida qayta konseptuallashishi va ma'lum bir til diskursida qayta hikoyalani tarzida namoyon bo'ladi. Matn tarjimalarida kognitiv jarayon — bu tarjimonning ongida matn tushunish, tahlil qilish va qayta yaratish bilan bog'liq psixolingvistik hodisadir. U ma'lumotni qabul qilish, qayta analiz qilish (asosan lingvokognitiv analiz), konseptualizatsiya va ekvivalentlikni yetkazish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi, bunday vaziyatda mentalitetga xos xususiyatlar va tarjimonning kognitiv jarayonlarni qabul qilish salohiyati kabi hal qiluvchi holatlar muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy tarjimashunoslikda badiiy matn talqin qilishda an'anaviy lingvistik yondashuvlardan kognitiv-paradigmatik yondashuv ham keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv tilni inson tafakkuri bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, hikoya janrida muallifning individual dunyoqarashi, obrazli tafakkuri va konseptual tizimi muhim o'rin egallaydi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Shu sababli tarjima jarayonida matnning nafaqat formal-strukturaviy, balki semantik va konseptual qatlamlarini ham hisobga olish zarur. Mazkur tadqiqotning maqsadi — hikoya tarjimasida kognitiv-paradigmatik

yondashuvning samaradorligini aniqlash va uning asosiy mexanizmlarini tahlil qilishdir. Mazkur yondashuv badiiy tarjimani nafaqat lingvistik ekvivalentlarni tanlashda emas, balki murakkab kognitiv jarayon, shu bilan birga, diskursiv faoliyat sifatida talqin qiladi. Hikoya janrining unikal jihatlaridan biri shundaki, unda voqealarning ketma-ketligi, obrazlar, muallif pozitsiyasi hamda uslubiy vositalar yagona narrativ strukturani hosil qiladi [2]. Shu uchun bunday matnlarni tarjima qilish jarayonida tarjimon nafaqat lingvistik elementlarni, balki butun hikoyani, ya'ni muallif konsepsiyani ham qayta ko'rib chiqishi zarur bo'ladi. Kognitiv-paradigmatik tamoyilga ko'ra, badiiy matn kognitiv anglash jarayoni inson ongida mavjud bo'lgan konseptual tuzilmalariga tayanadi. Hikoya matni o'quvchi ongida ma'lum mental strukturani hosil qiladi. Bu qolip voqealar izchilligi, sabab-natija munosabatlari va personajlar harakati orqali hosil qilinadi. Tarjimon esa bu modelni avval o'z ongida qayta quradi, so'ng uni tizimli til vositalari orqali yangi diskursiv shaklda qayta qiladi [3].

Tahlil va natijalar. Demak, tarjima jarayonining markazida konseptual interpretatsiya turadi. Tarjimon muallif tomonidan yaratilgan hikoyani to'liq tushunib olish uchun matnning semantik, pragmatik va stilistik qatlamlarini kompleks tarzda tahlil qiladi. Natijada muallif konsepsiyasi tarjimon ongida yangi kognitiv struktura sifatida shakllanadi.

Kognitiv tilshunoslikda bunday jarayon odatda "mental model" yoki "frame" tushunchalari orqali tushuntiriladi. Hikoya matnida tasvirlangan voqealarning ketma-ketligi ma'lum bir kognitiv freymlar asosida hosil bo'ladi. Masalan, biror voqea yoki vaziyat tasviri o'quvchi ongida shu vaziyatga oid umumiy bilimlar tasvirini shakllantiradi [4]. Tarjimon mazkur freymlarni aniqlab, ularni boshqa til va madaniyat kontekstida qayta tahlil qilishi kerak bo'ladi. Aks holda matnning semantik ma'nodorligi yoki stilistik ta'sirchanligi yo'qolishi mumkin. Shuning uchun hikoya tarjimasi nafaqat lingvistik moslashuvchanlik, balki madaniy kontekstlardagi kognitiv qayta qurish hamdir [5].

Paradigmatik tamoyil tarjimashunoslikdagi ilmiy nazariyalar tizimini belgilab beradi. Tarjima nazariyasining rivojlanish tarixida turli paradigmatlar shakllangan [6]. Jumladan: struktur, funksional, kommunikativ va kognitiv paradigmatlar bo'lib, Shulardan struktur paradigma badiiy tarjimani asosan til birliklarining ekvivalentligi orqali izohlaydi. Funksional paradigma hikoyaning kommunikativ maqsadini ifodalaydi [7]. Zamonaviy kognitiv paradigma esa tarjimani inson ongi bilan bog'liq bo'lgan holat deb qabul qiladi. Hikoya janridagi badiiy matnlarni tahlil qilishda kognitiv paradigma muhim o'rin tutadi. Bu borada hikoya matnining semantik strukturasi to'liq tushunish uchun birinchi navbatda muallifning konseptual manzarasini aniqlash zarurdir.

Kognitiv-paradigmatik modelga ko'ra, tarjima jarayoni bir necha bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqichda tarjimon matni qabul qiladi va uning umumiy mazmun mohiyatini anglashga harakat qiladi. Bu jarayonda til birliklari, sintaktik qurilma va stilistik vositalar ifodalangan ma'lumotni tarjimon ongida dastlabki tasavvurni hosil qiladi. Ikkinchi bosqichda esa mazkur tasavvur chuqurroq konseptual tahlilni talab qiladi. Tarjimon voqealar izchilligini, personajlarning ishtirokini, muallif pozitsiyasini hamda matn strukturasi boshqa elementlarini aniqlaydi. Natijada matnning tarjimon ongidagi modeli shakllanadi. Uchinchisi bosqichda esa bu model aniq bir til vositalari orqali qayta ifodalanaadi. Bunda tarjimon lingvistik ekvivalentlarni tanlash bilan birga matnning stilistik jihatlarni ham qamrab olishga harakat qiladi.

Hikoyaviy janrda ayniqsa narrativ perspektiva muhim ahamiyatga ega [8]. Hikoyani kim va qanday maqsadda bayon

qilayotganligi matnning umumiy semantik qiymatini belgilab beradi. Tarjimon bu maqsadni saqlab qolishi yoki muayyan bir til diskursiga moslashtirishi kerak. Ba'zi hollarda muallif tomonidan qo'llangan kinoyaviy yoki satirik ohangni to'g'ri yetkazish uchun stilistik transformatsiyalar amalga oshiriladi. Bunday transformatsiyalar kognitiv jarayon bilan bog'liq bo'lib, tarjimon muallif maqsadini tushunib, uni yangi diskursda qayta shakllantiradi. Hikoyalar tarjimasida stilistik vositalar ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular hikoya matnini asosan obrazli tasvirlar, ko'chimlar, epitetlar va boshqa ekspressiv vositalar bilan boyitadi [9]. Ushbu vositalar adresat ongida ma'lum emotsional va estetik ta'sirni uyg'otishga xizmat qiladi. Tarjimon esa bu ta'sirni saqlab qolish uchun ekvivalentlarni hamda ayni stilistik vositalarni topishi zarur va hu yo'l orqali yangi ifoda shakllarini yaratishi mumkin. Bu jarayonlar kognitiv interpretatsiyaga asoslangan holda metafora yoki obrazli ifodaning asl ma'nosini asosan yashirin aloqalar orqali tushuntiradi.

Kognitiv-paradigmatik tamoyilda tarjimon hikoya tarjimasini o'rganishda o'quvchi interpretatsiyasini ham inobatga olishi zarur hisoblanadi [10]. Ma'lumki, o'quvchi matni o'qish jarayonida o'zining madaniy tajribasi va ko'nikmalari asosida qabul qiladi. Shuning uchun tarjimon matni tarjima qilishda o'quvchi ongida qanday konseptual model shakllanishini ham bilishi zarur. Agar tarjima natijasida hosil bo'lgan model muallif matnidagi konseptual struktura bilan mos kelmasa, tarjima muvaffaqiyatli bo'lgan deb hisoblab bo'lmaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, hikoya janridagi badiiy matn tarjimasi kognitiv-paradigmatik nuqtai nazardan qaralganda, bir necha bosqichli interpretativ jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda tarjimon muallif tomonidan yaratilgan hikoyani o'z ongida konseptual jihatdan qayta ishlab chiqadi va uni o'zining tilida boshqa ko'rinishda ifodalaydi. Natijada tarjima asl matnning semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlarini o'zida saqlagan holda yangi kommunikativ jarayonga mos matn sifatida vujudga keladi. Shuning uchun kognitiv-paradigmatik tamoyil badiiy tarjima nazariyasida muhim metodologik asoslardan biri sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, hikoya janridagi matnlarning chuqur tahlilini amalga oshirish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Baker, M. Translation and conflict: A narrative account. London: Routledge. 2006.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors we live by. Chicago: University of Chicago Press. 1980.
3. Johnson-Laird, P. N. Mental models: Towards a cognitive science of language, inference and consciousness. Cambridge: Cambridge University Press. 1983.
4. Gutt, E. A. Translation and relevance: Cognition and context. Manchester: St. Jerome Publishing. 2000.
5. Venuti, L. The translator's invisibility: A history of translation. London: Routledge. 2012.
6. House, J. Translation quality assessment: Past and present. London: Routledge. 2015.
7. Gutt, E. A. Translation and cognition. In J. House (Ed.), Translation: A multidisciplinary approach. London: Palgrave Macmillan. 2014.
8. Salomov, G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent: Fan. 1983.
9. Sher, A. (2010). Tarjimashunoslik asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
10. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Universitet. 2016.
11. Mahmudova, N. Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent: Akademiya. 2018.
12. Fedorov, A. V. Основы общей теории перевода. Москва: Высшая школа. 2002.
13. Komissarov, V. N. Теория перевода. Москва: Высшая школа. 1990.
14. Barkhudarov, L. S. Язык и перевод. Москва: Международные отношения. 1975.